

**MUHAMMAD SHAYBONIYXON VA UNING SIYOSIY FAOLIYATI  
(SHAYBONIYNOMA VA BOBURNOMA ASARLARI MISOLIDA)**

**Yakobjanov J.J**

*Phd., dots.*

**Rahmonqulova Ruxshona Alijan Qizi**

*Nizomiy nomidagi O'zMPU kechki bo'lim tarix fakulteti 401-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Muhammad Shayboniyxonning siyosiy va harbiy faoliyati hamda u haqidagi ma'lumotlar Boburnoma va Shayboniynoma asosida tahlil qilinadi. Maqolada Shayboniyxonning Movarounnahr tarixidagi o'rni qisqacha yoritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Muhammad Shayboniyxon, Boburnoma, Shayboniynoma, Movarounnahr, Shayboniylar, Temuriylar, Marv jangi, siyosiy kurash, tarixiy manbalar.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируется политическая и военная деятельность Мухаммад Шайбани-хан на основе Бабур-наме и Шайбани-наме. Кратко рассматривается роль Шайбани-хана в истории Мавераннахра и его значение как исторической личности.*

**Ключевые слова:** *Мухаммад Шайбани-хан, Шайбани-наме, Бабур-наме, Захир ад-дин Мухаммад Бабур, государство Шайбанидов, Мавераннахр, Тимуридское государство, битва при Мерве, политическая борьба, исторические источники, полководец, государственное управление.*

**Abstract:** *This article analyzes the political and military activities of Muhammad Shaybani Khan based on Baburnama and Shaybani-name. It briefly highlights Shaybani Khan's role in the history of Movarounnahr and his significance as a historical figure.*

**Keywords:** *Muhammad Shaybani Khan, Shaybani-name, Baburnama, Zahir-ud-din Muhammad Babur, Shaybanid state, Movarounnahr, Timurid Empire, Battle of Merv, political struggle, historical sources, military commander, state administration.*

XVI asr boshlarida Markaziy Osiyo tarixida muhim burilish yasagan shaxslardan biri Muhammad Shayboniyxon hisoblanadi. U nafaqat yirik sarkarda, balki kuchli davlat arbobi sifatida ham tarix sahnasida o'ziga xos o'rin egallagan. Shayboniyxon Movarounnahr hududida markazlashgan davlat barpo etib, uzoq davom etgan siyosiy tarqoqlikka barham berishga harakat qildi.

Muhammad Shayboniyxon XV asrning ikkinchi yarmida (1451-yilda) Dashti Qipchoq hududida tug'ilgan bo'lib, u Shayboniylar sulolasining yirik vakillaridan biri hisoblanadi. Uning asl ismi V.V. Bartoldning fikriga ko'ra Muhammad Shohbaxt, R.G. Mukminova, V.P. Yudin kabi tadqiqotchilar fikriga ko'ra Abulfath Muhammad Shayboniyxon bo'lgan.

Shayboniy she'riy taxallusidir<sup>50</sup>. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida yozilishicha, Shohbaxt taxallusi unga Abulxayrxon tomonidan berilgan. U asos solgan sulola tarixda

<sup>50</sup> ESBE:Sheybani 1903

Shayboniylar nomi bilan tanilgan, ammo bu sulola vakillaridan hech biri Muhammad Shayboniy avlodi bo'lmagan.

U o'z nasl-nasabini Chingizxonning to'ng'ich o'g'li Jo'jixon orqali Shaybon (Shiban) urug'iga bog'laydi<sup>51</sup>. O'zbek ulusi hukmdori Abulxayrxonning (1428—1468) o'n bir o'g'li bo'lib, ulardan biri Shayboniyxonning otasi Shohbudog' bo'lgan. Shayboniyxonning onasining ismi Oq Qo'zi biyim bo'lgan<sup>52</sup>. Manbalarga ko'ra, Shayboniyxonning nasabnomasi quyidagicha: Chingizxon o'g'li Jo'chixon, Jo'chixon o'g'li Shaybon, Shaybon o'g'li Baniyol Bahodur, Baniyol Bahodur o'g'li Yis Buka, Yis Buka o'g'li Jochi Bukaxon, Jochi Bukaxon o'g'li Shohibekxon, Shohibekxon o'g'li Abdulo'g'lon, Abdulo'g'lon o'g'li Mingtemurxon, Mingtemurxon o'g'li Fuladxon, Fuladxon o'g'li Ibrohimo'g'lon, Ibrohimo'g'lon o'g'li Davlatshayx o'g'lon, Davlatshayxo'g'lon o'g'li Abulxayrxon, Abulxayrxon o'g'li Shohbudog'xon, Shohbudog'xon o'g'li Abulfath Muhammad Shayboniyxon bo'lgan<sup>53</sup>. Shayboniyxonning bobosi bo'lgan Mingtemurning xotini Ismoil Somoniy avlodidan bo'lgan Jandibekning qizi ekanligi qayd etilgan. Bu haqda “Tavorixi Guzidayi Nusratnoma”da qayd etilgan.

Shayboniyxon otasining erta vafotidan so'ng, bobosining qaramog'ida qolgan. Ukasi Sulton Muhammad bilan birga Boyshayx otalig'ida voyaga yetgan. Muhammad Shayboniy 1480-yillarda Abulxayrxon vafotidan so'ng Dashti Qipchoqning asosiy hududida o'z hukmronligini o'rnatmoqchi bo'lgan. U 1490-yillardan o'zaro kurashlar va ichki nizolar tufayli tobora zaiflashib borayotgan Temuriylar hududi bo'lgan Movarounnahrda ham o'z hukmronligini o'rnatish uchun harakat boshlagan. XV asr oxiri — XVI asr boshlarida Movarounnahrda qilgan yurishlari natijasida hokimiyat boshqaruvi uning qo'lga o'tgan. Muhammad Shayboniy Turkistonning Sig'noq, Sabron, Yassi shaharlarini ham o'z qo'l ostiga kiritgan. 1504-yil Hisor, Badaxshon, Balx, 1505-yilda Xorazm, Hirot ham Muhammad Shayboniy qo'l ostiga o'tgan. Keyinroq Mashhaq va Tus shaharlarini ham egallagan. “Shayboniyxon lashkari bilan Movarounnahr sari yurdi. Uning shijoati va qat'iyati sabab ko'plab viloyatlar unga bo'ysundi. U har bir ishda tartib va adolatni ustun qo'ydi<sup>54</sup>”.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'z asarida Shayboniyxonni Dashti Qipchoqdan chiqqan kuchli sarkarda sifatida tasvirlaydi. “Boburnoma”da Shayboniyxon kuchli siyosiy arbob sifatida ko'rsatiladi. U Temuriylar zaiflashgan davrdan foydalanib, Movarounnahr hududlarini bosib olgan hukmdor sifatida tasvirlanadi. Bobur uning davlatni tez va qat'iyat bilan birlashtira olganini tan oladi. U Shayboniyxonning o'zbek qabilalarini birlashtirib, Movarounnahr tomon yurish qilganini qayd etadi. Bobur uni juda tadbirkor, siyosatda ayyor va harbiy jihatdan kuchli raqib sifatida baholaydi. Z.M. Boburning yozishicha, Shayboniyxon avval zaif holatda bo'lgan, ammo vaqt o'tishi bilan kuch to'plab, katta siyosiy kuchga aylangan. Bu orqali uning kelib chiqishi ko'chmanchi o'zbek muhitiga bog'liqligi va asta-sekin yuksalib borgani ko'rsatiladi.

<sup>51</sup> B.Ahmedov-O'zbek ulusi

<sup>52</sup> Камал-ад-дин али Бинаи-Шайбани-Ннаме- Текст. 2012-йил 30-апрелда asl nusxadan arxivlangan.

<sup>53</sup> Материалы по истории казахских ханств XV—XVIII веков. (Извлечения из персидских и тюркских сочинений). Алма-Ата: Наука. 1969. С. 390

<sup>54</sup> Muhammad Solih. Shayboniyнома. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1989.

“Shayboqxon Dashti Qipchoq o‘zbeklaridin erdi, oz fursatda quvvat topib, Movarounnahrni oldi”<sup>55</sup>.

1510-yilda Marv yaqinidagi Mahmudobod qishlog‘ida Safaviylar shohi hisoblangan Ismoil safaviyning 70 ming kishilik qo‘shini bilan bo‘lgan jangda Shayboniyxon mag‘lubiyatga uchraydi va xonning o‘zi ham halok bo‘ladi. “Shayboniyxon cherik tortib, Marv tarafiga yuzlandi. Andin so‘ng urush qizib, ikki taraf orasida qattiq jang bo‘ldi. Oxirida taqdir hukmi bilan Shayboniyxon halok bo‘ldi”<sup>56</sup>. Uning boshsiz tanasi Samarqanddagi baland supaga dafn qilingan. Baland supa Registon maydonidagi Tillakori va Sherdor madrasalari o‘rtasida joylashgan. Bu yerga boshqa shayboniylar ham dafn etilgan. Keyinchalik bu yerga Shayboniylar daxmasi deb nom berilgan.

Xulosa o‘rnida, Muhammad Shayboniyxon Movarounnahr tarixida Temuriylar davlati zaiflashgan davrda maydonga chiqib, kuchli markazlashgan davlat tuzgan va mintaqa siyosiy xaritasini tubdan o‘zgartirgan hukmdorlardan biri hisoblanadi.

U o‘zining harbiy mahorati va qat‘iy siyosati bilan ko‘plab hududlarni birlashtirib, yangi sulola — Shayboniylar davlatiga asos soldi.

Boburnomada u kuchli raqib va mohir sarkarda sifatida tasvirlansa, Shayboniynomada esa davlat asoschisi va g‘olib hukmdor sifatida madh etiladi.

Shu bois Shayboniyxonning faoliyati nafaqat siyosiy, balki tarixiy jarayonlarga ham chuqur ta‘sir ko‘rsatgan muhim bosqichlardan biri bo‘lib qoladi.

---

<sup>55</sup> Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2008.

<sup>56</sup> Muhammad Solih. Shayboniynoma. Toshkent: G‘.G‘ulom nashriyoti, 1989.